



O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARI QO‘LLANGAN IBORALAR TAHLILI

M. Mustafaqulova,
SamDU, filologiya fakultetining 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Iboralar xalq tili, uning jilvalari, ma’no qochirimlarini ifodalab beruvchi asosiy til unsurlaridan biridir. Badiiy asarda frazemalardan foydalanish muhit koloritini, qahramonlar nutqining jonliligini taminlovchi vosita. Zero asarda xalq hayoti qalamga olinadi, yoritib beriladi. Maqolada asar tarkibidagi iboralarni shakl va ma’no jihatdan tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: barqaror birikma, ibora, frazema, frazeologizm, ko‘chma ma’no, ikki komponentli iboralar, uch komponentli iboralar.

Tilimizdagi kommunikativlik, emotsional-ekspressivlik, akkumulyativlik sifatleri ko‘chma ma’noli so‘zlar, frazeologizmlar, o‘xshatishlar, kinoyalar orqali yuzaga chiqadi. Bunday birliklarni tushunish va tahlil qilishga intilish, o‘z navbatida, kishilarning tafakkurini boyitishga xizmat qiladi. Xalqimizning butun qadriyatlari, so‘z qo‘llash va so‘z qochirimlaridan mahorat bilan foydalana olish qobiliyati tilning frazeologik qatlamida yuzaga chiqadi.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko‘rinishining birikuvdan tashkil topib, obrazli ma’naviy tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi, o‘takasi yorildi, do‘ppisi yarimtava boshqalar¹.

Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik, ibora, turg‘un birikma, barqaror birikma kabi nomlar bilan ataladi. Sh. Rahmatullayev o‘zining “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” kitobida esa bunday birliklar leksema, morfema terminlariga monand tarzda frazema deb atashni taklif qiladi²

¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2010. – B. 117.

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006. – B. 420.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Lug‘aviy ma’noning taraqqiy etishi frazemalarga ham xos. Hozirgi o‘zbek tilidagi frazemalarda lug‘aviy ma’no, asosan, metafora yo‘li bilan ko‘chirish natijasida taraqqiyot etgan. Masalan, *ko‘ngliga tegmoq* iborasi aslida faqat bir ovqatni yeyish natijasida *yoqmay qolmoq* ma’nosini anglatadi. Ammo keyinchalik bu frazema ovqatdan boshqa narsalarga, kishilarga nisbatan ham ishlatiladigan bo‘ldi. Masalan: Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning *ko‘ngliga tegdi*³ Frazemalar monosemantik va polisemantik frazemalarga bo‘linadi. Monosemantik frazemalar faqat bir ma’noni ifodalaydi. Masalan, *bahridan o‘tmoq* iborasi “foydali deb bilgan narsasidan voz kechmoq”; *ipidan ignasigacha* iborasi “butun tafsilotlari bilan” degan faqat bitta ma’noni ifodalab kelmoqda. *Boshi aylandi* frazemasini “behud bo‘lmoq”, “esankiramoq”; *bosh ko‘tarmoq* frazemasini esa “qaramoq”, “qilayotgan ishini to‘xtatmoq”, “qo‘zg‘almoq”, “kurashga chog‘lanmoq” ma’nolarini bildiradi va polisemantik frazemalarga misol bo‘ladi.

Ifoda jihatiga ko‘ra omonim, sinonim, antonim iboralar mavjud:

Omonim iboralar: *boshiga ko‘tarmoq* - kuchli shovqin-suron solmoq; *boshiga ko‘tarmoq* – yuksak darajada izzat-ikrom qilmoq;

Sinonim iboralar: *toqati toq bo‘lmoq* – sabr kosasi to‘lmoq; *ko‘ngli bo‘sh* – *ko‘ngli yumshoq* kabilar;

Antonim iboralar: *ko‘kka ko‘tarmoq* (maqtamoq) – *yerga urmoq* (kamsitmoq); *ko‘ngli joyiga tushmoq* (xotirjam bo‘lmoq) – *yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq* (xavotirlanmoq, qo‘rqmoq) kabilar.

O‘tkir Hoshimov asarlarida frazemalardan unumli foydalangan. Xususan, uning “Odam ovozi” hikoyasida *danagidan mag‘zi shirin, oydinda oyog‘i bilan boqmoq, og‘zi oshga yetmoq, yerda qoldirmaslik, yurakni ezmoq* kabi, “Uzun kechalar” hikoyasida *ko‘ngli cho‘kmoq, ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq, ko‘ngli og‘rimoq* kabi, “Nurli halqachalar”da *til uchida aytmoq, rangi o‘chmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, ich-etini yemoq, baxti kulmoq, oyog‘i yerdan uzilgan* kabi, “Dard” hikoyasida *ota o‘g‘il, o‘zini qo‘yarga joy topolmaslik, ichi uzilmoq, esi kirmoq, og‘zi ochilib qolmoq* kabi, “Nimadir bo‘ldi”da *ishning ko‘zini bilmoq, keti*

³ Турсунов У. ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 240.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

ko‘rinmaslik, tuprog‘i bir joydan olingan kabi, “Uloq” hikoyasida esa ko‘zidan o‘t chaqnamoq, aql bovar qilmaslik kabi 59 ta ibora qo‘llangan.

Quyida ba’zi iboralarning tahliliga to‘xtalamiz.

Adibning “Nimadir bo‘ldi” hikoyasida “tuprog‘ini bir joydan olmoq” iborasi qo‘llangan. Masalan: “Mis qozonga loy tovoq”, – o‘yladi Azimjon g‘ashlanib. – Ikkovining tuprog‘ini bir joydan olgan ekan. (Umr savdosi, 103).

Ikkovining *tuprog‘ini bir joydan olgan* ekan”. Lug‘atda ibora “bir-biriga o‘xshash (qiyofasi, fe‘l-atvori)⁴” deya izohlangan. Hikoyadagi mazmun ham aynan shunday: Azimjon ayoli, ayolining dugonasi va eri bilan tabiat qo‘yniga dam olishga chiqishadi, orada ichkilik bo‘lib Fayzulla xotinidan nolib ketadi. Xotini esa erini qanchalik hurmat qilmasligini ko‘rsatadi. Azimjon o‘ylaydiki, ikkovi ham bir-biriga “mos” ekan.

“Uloq” hikoyasida qo‘llangan “aql bovar qilmoq” iborasi frazeologik lug‘atda “ishonib yetmaslik, idrok qila olmaslik”⁵ ma’nosini ifolashi keltirilgan. Asarda ham ushbu ibora xuddi shunday ma’noni yetkazib berishga xizmat qilgan.

Ko‘z o‘ngimda bo‘lib turgan hodisaga *aqlim bovar qilmasdi*. Nahotki, bu o‘sha Ko‘ktoy bo‘lsa? (Umr savdosi, 119-bet). Hikoya nomidan bilinib turganidek gap ot, chovondozlar va ko‘pkari haqida ketmoqda. Uloqqa jo‘nashda Ko‘ktoy juda yuvosh, qadamlari sekin, erinib yuradigan bo‘lganligi uchun ham birinchi marta ot minayotgan mehmonga beriladi. O‘zi minib kelgan ot ko‘pkarini ko‘rganda ham boshqa otlar singari jo‘shib ketmadi. Ammo otni egasi uloqqa solganda u birdan jonlandi, boyagi tepsa tebranmas otdan asar ham qolmadi. Bu voqeani guvohi bo‘lgan mehmonning aqli bu ot Ko‘ktoy ekanligiga bovar qilmadi.

⁴ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 510.

⁵ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 42.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

“Nurli halqachalar” hikoyasida “yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik” iborasidan foydalanilgan. Iboraning lugʻaviy maʼnosi “nomus qilganidan oʻzini qayoqqa olib qochishni bilmaslik” tarzida ifodalangan⁶.

Xurshid qotib qoldi. Qani endi *yer yorilsa-yu, kirib ketsa* (Umr savdosi, 46-bet). 4-kursning oldi talabasi oʻqishdan soʻng ishlardi. Doimgidek kunlarning birida Xurshid qorongʻuda bir kishiga yuklarini ortib berishni taklif qiladi. Qarasaki, u odam universitetda oʻziga maqtab-maqtab besh baho qoʻygan oʻqituvchisi boʻlib chiqadi. Oʻzining bu ahvolidan shu qadar uyaladiki, hech narsa qilolmaydi, yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsa, oʻzini oʻqituvchisining koʻzidan berkitsa deydi, ammo kech boʻlgan edi...

“Odam ovozi” hikoyasida “oydinda oyogʻi bilan boqmoq” iborasidan foydalanilgan va lugʻatda ushbu frazema “oydinda oyogʻi bilan qilib qoʻymoq” tarzida “mutlaqo qiynalmasdan amalga oshira olmoq” deya izohlangan⁷.

Unaqa erdan qaro yer yaxshi... Bitta bolamni *oydinda oyogʻim bilan boqaman* (Umr savdosi, 5-bet). Maʼnosi: mutlaqo qiynalmasdan amalga oshira olmoq. Asar qahramoni Mastura xola pochtachi Zamirani gapga solish uchun undan-bundan savol beradi. Gap oilasiga kelganda Zamira na xat, na xabari bor erini eslab jahli chiqadi. Eri bolasini qarovsiz tashlab qoʻygan boʻlsa-da, oʻzi farzandini usiz ham osongina, hech qiynalmay katta qila olishini koʻrsatish maqsadida bu iboradan foydalanadi.

Haqiqatdan ham, iboralardagi bir qarashda tushunarsizdek tuyulgan maʼno agar magʻzi chaqib koʻrilsa, fikrni aniq va tasirchan qilib ifodalay olishiga guvoh boʻlamiz. Tilimizning goʻzal va mazmundor ekanligiga aynan iboralarning ham salmoqli hissasi borligi ajab emas.

⁶ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 549.

⁷ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 359.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Iboralarni nechta tarkibiy qismdan tashkil topganligiga qarab ikki komponentli, uch komponentli va hokazo komponentli iboralarga ajratishimiz mumkin. Tilimizda ikki komponentli iboralar ko‘p uchraydi.

Biz tahlil qilgan iboralarning 39 tasi (59%) ikki komponentli, 16 tasi (27%) uch komponentli, 4 tasi (6%) to‘rt komponentli iboralar ekanligi isbotlandi. Quyida bunga misollar keltiramiz:

Ikki komponentli iboralar:

Xurshidning *asabi qaqshab* gazni bosaverdi (Umr savdosi, 46-bet).

Nima, men yugurdagimidim uning? – Xurshid *qovog‘ini solib* o‘rnidan turdi (Umr savdosi, 45-bet).

Marat uning ko‘zlarida g‘azab borligini ko‘rib, *ko‘ngli og‘ridi* (Umr savdosi, 38-bet).

Mingdan-ming roziman. *Chirog‘imni o‘chirmasa* bo‘ldi (Umr savdosi, 7-bet).

Mana, qariganda *esingiz kiribdi*, Santal xola (Umr savdosi, 87-bet).

Uch komponentli iboralar:

Samosvalning eshigi ochildi-da, *rangi quv o‘chgan*, ko‘zlari qo‘rquvdan olaygan yigit sakrab tushdi (Umr savdosi, 51-bet).

Oyog‘i yerdan uzilgan odam osilib o‘ladi. Ikki o‘rtada domlaning *yuzini yerga qaratding* (Umr savdosi, 50-bet).

Danagidan mag‘zi shirin deganlaridek, nevarasiga o‘rganib qolgan ekan (Umr savdosi, 3-bet).

O‘zing yemay-yedirib, kiymay-kiydirib, katta qilib, endi *o‘g‘zim oshga yetdi* deganida, qiz erim derkan, o‘g‘il xotinim derkan, o‘zi bilan o‘zi ovvora bo‘larkan, ketarkan (Umr savdosi, 7-bet).

Xurshid shunday dedi-yu, bu gapni *til uchida aytganini*, buning ustiga orqasida xotini tikilib turganini sezib, g‘ijindi (Umr savdosi, 41-bet).

Nihoyat, olisdagi pastak uyning derazasida nur ko‘rib *ko‘ngli joyiga tushdi*, bo‘shashib to‘xtadi (Umr savdosi, 44-bet).

Uch komponentli iboralar:

Unaqa erdan qaro yer yaxshi... Bitta bolamni *oydinda oyog‘im bilan boqaman* (Umr savdosi, 5-bet).

Muxtorjon *bitta bo‘lsayam o‘ntaga tatiydigan* yigit chiqdi (Umr savdosi, 82-bet).



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

O‘zini qo‘yarga joy topolmay yana hovliga tushdi, ko‘chaga chiqdi (Umr savdosi, 84-bet).

Yarim yil ilgari Fayoz Mahmudovich Xurshidning oldida uning qaynotasiga yarim hazil, yarim chin qilib: “Kuyovingizga mashina olib bermaysizmi?” deb kulgan edi (Umr savdosi, 49-bet).

O‘rganishlarimiz natijasida iboralar badiiy asarda, xususan, O‘tkir Hoshimov asarlarida salmoqli o‘rin egallaganligini ko‘rdik. Har bir iborani o‘z o‘rnida, loyiq vaziyatlarga moslab foylana olgani esa adibning ulkan mahorati bo‘lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005.
2. Турсунов У. Хозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
3. Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. O‘tkir Hoshimov. Umr savdosi. – T.: Global books, 2021.